



HAJVIYA-BOLALAR RUHIYATIDAGI NUQSONLARNI FOSH QILISH VOSITASI SIFATIDA

¹Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

²Xaydarova Mahliyo Murodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8014075>

ARTICLE INFO

Received: 29th May 2023

Accepted: 06th June 2023

Online: 07th June 2023

KEY WORDS

Hajviya, satira, feleton, parodiya, bolalar ruhiyati.

ABSTRACT

Maqolada hajviyaning bolalar ruhiyatiga ta'siri, ulardagi ba'zi bir nuqson va illatlarni yo'qotishdagi ahamiyatini o'rganib chiqilgan. Oddiy yozilgan asarlarga qaraganda hajviy yo'sinda yozilgan asarlar bolalar ruhiyatiga tezroq kirib boradi va ularga tezroq ta'sir ko'rsatishi ochib ko'rsatilgan.

Satira va yumorni davolovchi xususiyatga ega desak, mubolag'a bo'lmaydi. Sababi satira va yumor insondagi yoki jamiyatdagi yomon illatlar, nuxsonlarni davolaydi. Satirani inkor etib bo'lmaydi. Satirani inkor etuvchilar haqida Abdulla Qahhor shunday deb yozgan edi: "Satira o'tiga uchragan kishi, – vijdoni bo'lsa, odamlarning yuziga qarolmaydi, vijdoni bo'lmasa, og'zidan ko'pik sochib, yozuvchining ketidan bolta ko'tarib yuguradi". Holbuki, xalq satirani sevadi, haqiqiy satirik asarlarni o'qib, maza qilib hordiq chiqaradi, yayrab kuladi. Satirik hikoyalar, feletonlarni, masal va parodiyalarni, satirik qissa va romanlarni o'qishni istamaydigan insonlar topilmasa kerak". Haqiqatdan ham satira va yumor jamiyatimizdagi va insonlardagi illatlarni fosh etuvchi va ularning oldini oluvchi eng yaxshi qurol hisoblanadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. "Yumor orqali jamiyat o'zining hamma kutubxonasi a'zolariga tarixan tekshirib ko'rilgan axloq normalarini eslatib turadi, u orqali jamiyat har qanday umum qoidadan chekinishlarga qarshi kurashadi, zararli o'tlarni hali unib chiqmagan paytida qirib tashlaydi, satira aktiv davolash, yumor kasalning oldini olish... Demak, obyekt ham bir – jamiyat hayotida bo'lishi mumkin bo'lgan har xil kasalliklar; maqsad ham bir – bu kasalliklarga qarshi kurash, faqat kurash yo'li boshqa, vosita o'zga. Birida o'sib yetishgan "zararli o'tni" yulib tashlash, ikkinchisida o'sha o'tni hali shox chiqarib ildiz otib ulgurmasdan oldinroq yulib tashlash"

Bolalar adabiyotida hajviy obraz yaratishning bir qancha usullari va vositalari mavjud bo'lib, ularning hammasi bolalardagi va jamiyatdagi illatlarni yo'qotishga qaratilgan bo'ladi. "Kuzatishlardan ma'lum bo'ladiki, so'nggi davr bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratish quyidagi usullar bilan amalga oshirilgan:

1. Bolalarning bevosita hajviy qiyofalarini chizish orqali ular harakterida uchrab turadigan chaqimchilik, g'iybatchilik, dangasalik, yolg'onchilik kabi illatlar hajv tig'iga olinadi.
2. Bolalarning hajviy obrazini yaratish orqali hayotdagi muhim ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy muammolar, illatlar hajviy yo'sinda fosh etiladi va shu tariqa kichik kitobxonda hajviy obrazga, uning yashash falsafasiga munosabat shakllantiriladi.



3. Bolalarning ma'naviy-axloqiy olamini, ular tabiatidagi ba'zi nuqsonlarni fosh etishda majoziy obraz va detallardan, shartli tasvirdan keng foydalanildi. Bunda realistik tasvirni poetik ko'chimlar teranlashtirgani ko'zga tashlanadi.

4. Ijodkorlar hayvonlar, parranda va darrandalarning allegorik obrazlari orqali muhim ijtimoiy hamda ma'naviy muammolarga e'tiborni qaratib, ularni keltirib chiqargan sabablarning ildizini ochib berishdi. Bunday ijodiy izlanishlar o'zbek bolalar adabiyotining yetakchi tamoyillaridan sanalib, iste'dodli ijodkorlarning hayot hodisalari, inson shaxsi va ruhiyatiga chuqurroq kirib borganidan dalolat beradi".

Ko'rib turganimizdek, yuqoridagi sanab o'tilgan usullarning barchasida bolalardagi yaramas va yomon illatlarni fosh etish, ustidan kulish orqali ularni yo'qotishga qaratilgan.

Barchamizga yaxshi ayonki, bolalar o'rtasida bir birini masxaralash, ustidan kulish, ajratib qo'yish va shu kabi ko'plab salbiy illatlar yo'q emas, albatta. Bu illatlarni odatiy pand nasihat bilan bartaraf etish mushkul hodisa. Chunki, ba'zi bolalar nasihat eshitaverib quruq nasihat kor qilmaydigan bo'lib qoladilar. Bunday vaziyatda bolalarga hajviya orqali saboq berish mumkin. Chunki, bolalar o'zlarida mavjud bo'lgan kamchiliklarni, illatlarni tanqid ostiga olingani va hamma ularning ustidan kulayotganini ko'rib uyaladi, natijada, o'zi ham mana shunday kulgiga qolmaslikka harakat qiladi. Hajviy asarlarning o'qilishi qiziqarli, bolani zeriktirmaydi hamda bolalar qalbiga tez va oson yetib boradi. Shuningdek, hajviy asarlarning ta'siri ham kuchli hisoblanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, bolalar shoir va yozuvchilarining salmoqli qismi bir marta bo'lsa ham hajviya janrida asar yaratganlar. Ayniqsa, Anvar Obidjon ijodida bu borada tahsinga loyiq asarlar talaygina. Uning bolalarga atalgan "Hajviy hikoyalar" to'plamida bir qancha hajviy hikoyalar keltirilgan. Bu hajviy hikoyalarda ijodkor yumor orqali bolalar tarbiyasida uchraydigan ba'zi nuxsonlarni samimiy kulgi orqali yo'qotishga harakat qiladi. Masalan, "Qarg'aning hikoyasi" nomli hikoyada yozuvchi jajji kitobxonlarni chaqimchilik qilmaslikka o'rgatmoqchi bo'ladi. Chaqimchilik, birovlarining ishiga aralashishlik yomon illat ekanligini hikoya vositasida ko'rsatib beradi. Hikoyani mutola qilish orqali bolalar chaqimchilikning oxiri voy ekanligiga yana bir bor amin bo'ladilar. Hikoyada keltirilishicha, it mushukni quvayotgan paytda qarg'a daraxtning ustida ularni kuzatib turgan bo'ladi. Shu payt mushuk yashirinish uchun bostirmadagi xazon ichiga kirib ketadi. It uni yoqotib qo'yadi. Shunda qarg'a o'zini aqillilarcha tutadi va mushukning yashiringan joyini ko'rmagani, lekin farosatini ishlatib, uning qayerdaligini tahmin qilishini aytadi. Biroq qarg'a bularni hammasini ko'rgan bo'ladi. Shunchaki chaqimchilikni to'g'ridan to'g'ri qilmasdan o'zini hammadan aqilliroq ekanligini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Lekin mushuk xazonlar ichidan sapchib chiqadi va qarg'aga chang soladi. Qarg'a bazo'r uning changalidan qutulib qochib qoladi. Lekin, qarg'a jiddiy jarohat oladi. Hikoyadan anglashiladiki, birovlarining ishiga aralashishlik, chaqimchilik, o'zini birovlardan ustun qo'yish kabi salbiy illatlar yomon ekanligi, bunday odatlarni tark etish bolalarning o'zlariga qilgan yaxshiliklari bo'lishini tasvirlagan. Yana bir o'tkir hajvchi ijodkorlardan biri Erkin Vohidov hisoblanadi. Erkin Vohidov hajviya janrida ko'plab asarlar yaratgan va bolalarga tortiq etgan.

"Shoir yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor beradi. Yevropa madaniyatiga taqlid qilib, milliylikni unutganlarni qattiq tanqid ostiga oladi. E. Vohidovning satiraga moyil "Boshindadur" she'ri fikrimizning dalilidir. She'r quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

O'n sakkiz ming olam oshubi Padar boshindadir,



Ne ajab, chun o'g'li oning O'n sakkiz yoshindadir.

Shundan so'ng shoir "nay misol shim kiygan," sandiqdayin tuflisi bilan, "Hurpayib turgan savatdek" sochi bo'lgan bebosh moda qurboni ustidan kuladi. Bir zamon o'zgalarning farzandi ustidan kulgan otaning boshi bugun egik, o'g'lining qilmishlaridan yerga kirib ketgudek uyaladi. Rahmat o'rniga ta'na toshlari eshitgan ota dardini kimga aytishini bilmaydi. Shoir esa bu holatdan:

Yo'q ajab, yoshlikda o'g'lin Ota ardoqlab, suyib.

Erkalab boshiga qo'ydi, Ul hamon boshindadir.

deya xulosa chiqaradi. Haqiqatan ham, Yevropa madaniyati deb hammaning kulgisiga qolgan, o'zligini unutgan, millatimizga xos ish tutmagan bunday bebosh va odobsiz yoshlar yo'q deysizmi? Bularning bari oiladagi tarbiyaga bog'liq. Zero, xalqimiz "Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Erkalatsa onasi, taltayadi bolasi" deb bejiz aytmagan. Shuning uchun ham Erkin Vohidov satira tig'ini ana shunday illatlarga qaratib, ota-onalarni ogohlikka da'vat etadi". Yuqoridagi she'rdan nafaqat ota-onalar, balki, ko'z qorachiqlarimiz hisoblanmish bolalarimiz ham o'zlari uchun kerakli xulosani chiqarsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi. Erkin Vohidovning bunday hajviy yo'sinda berilgan ibratli asarlari talaygina. Masalan, shoirning "Qiziquvchan Matmusa" nomli to'plami tarkibida berilgan "Bo'ri chaqirgan majlis va beodob ot haqida latifa" she'ri orqali ham bolalardagi, ham jamiytdagi salbiy illatlarni ko'rishimiz mumkin. Shoirning bu she'rini bolalar mutolasi uchun ham tavsiya etish mumkin. Chunki, she'rda keltirilgan obrazlarda bolalarcha xarakter tasvirlangan. Shoir bo'ri orqali xudbin, qo'pol, yomon xulqli bolalarni, quyon, echki, qo'y orqali esa sodda, qo'rqqoq, o'zini fikriga ega bo'lmagan bo'lmagan, birovlar nima desa shunga ko'nib ketaveradigan bolalarni, ot obrazi orqali esa hushyor, qo'rqqmas, uddaburon bolalarni tasvirlab beradi. She'rda keltirilishicha, bir kuni bo'rining qorni to'yib, go'sht joniga tekkanda qo'y, quyon, ot va echkini majlisga chaqiradi. Bo'ri ularga hozir to'q ekanligini bundan foydalanib bemalol dashnom va tanqidlarini aytishlarini so'raydi. Bo'ri eng avval so'zni quyonga beradi. Quyon asta o'z jonini avaylab o'rta chiqadi:

Quyon dedi: «Ming rahmat,

Menda hech shikoyat yo'q.

Sizdek oliy marhamat

Sohibi inoyat yo'q.

Men qulingiz na derdim,

Sizga fidodir jonim...»

Quyon qo'rqqoqligi tufayli bo'riga shikoyat qilmaydi va uni maqtab ham qo'yadi. Hattoki, bo'riga jonini fido qilishga ham tayyor. Bun gaplar, albatta, bo'riga yoqib tushadi va quyonni maqtab qo'yadi. Hozir qorni to'qligi, nahor paytida kelishi va nonushtaga uni yeyishini buyuradi. Shundan so'ng navbat qo'yga tegib minbarga chiqadi:

Dedi: Hech vaqt hech bo'ri

Bizdan hol so'rgan emas.

Minbar berib, joy to'rin

Munosib ko'rgan emas.

Bu obro', bu hurmatdan

Men terimga sig'madim.



Bunday zo'r marhamatdan

Ta'sirlanib yig'ladim.

Bizlar mo'min, ma'qul el,

Rahm et, o'zga ne deyman.

Xalqimizda "Qo'yday yuvvosh" degan ibora bejizga paydo bo'lmagan. Yuqoridagi ta'rif "qo'yday yuvvosh" bolalarga va ba'zi kattalarga berilganday go'yo. Yuvvoshlikni ba'zilar fazilat deb atashi mumkin, lekin, aslida ortiqchasi illatdir. Nafaqat bolalarimizga, xalqimizga tegishli bo'lgan juda katta illat deb hisoblayman. Chunki o'z fikriga ega bo'lmagan, kim nima desa ishonib, yetaklasa ketaveradigan bolalarga yurti ishonib bo'lmaydi. Bunday bolalar vatanni kurashmasdanoq g'anim qo'lga topshirishlari tayin. Birgina so'z berilgani uchun terisiga sig'maydigan darajada xursand bo'lishi, bunday marhamatdan ta'sirlanib yig'lashi, endi obro' va hurmat orttirdim deb o'ylashi faqatgina sodda "qo'y"larga xosdir. Yana so'zining so'ngida qo'y bo'ridan rahm etishini so'raydi. Vaholanki, bo'ri ularga ozor berayotganligi uchun o'zi kechirim so'rashi kerak emasmikan?

Bo'ri dedi: indin kel,

Seni tushlikka yeyman.

Qo'y ko'z yosh to'kdi ba'rab,

Isyon qilmadi lekin.

Ketarkan ma'yus qarab,

«Rahmat» deb qo'ydi sekin.

Shundan so'ng, bo'ri qo'yga indinga kelishi, uni tushlikka yeyishini aytadi. Qo'y shunda ham isyon qilmaydi, ko'z yosh to'kib chiqib ketarkan "Rahmat" aytishni ham unutmaydi. Naqadar achinarli, shunday emasmi?

Qo'ydin keyin navbat uzunsoqol echkiga tegadi va payshanba kuni kech uni tanovul qilmoqchi bo'ladi. Eng oxirida gap navbati otga yetganida ot bo'rini mo'ljallab jag'iga chunonan tepadiki, bo'ri o'zidan ketib qaytib o'rnidan turolmaydi. Shu shu otning bu ishini unutmaydi:

Hamon unutmaz otning

Bu ishin va der har vaqt:

– Mendek demokratning

Padariga ming la'nat!

Bema'ni majlisga men

Ikki dunyo qaytmayman.

Ot – beodob, ot o'lsin,

Ziyofatga aytmayman.

Lekin unga tan berib,

Ichida «qoyil» dedi.

Quyong, echki va qo'yni

Aytgan vaqtida yedi.

Otni bu qilg'i uchun bo'ri uni beodoblikda ayblaydi. Lekin, ichida otga "qoyil" qoladi. Albattada, bo'riday hayvonga uncha munchasi bas kelarmidi, axir. Bo'ri quyong, echki, qo'yni aytgan vaqtida yeydi. Erkin Vohidovning ushbu she'rida to'qsoninchi yillaridagi xalqimizning soddaligi, ishonuvchanligi tasvirlangan. Lekin, bu she'rdagi obrazlar bolalar xarakteriga mos



tushganligi sababidan bolalar ham bu sheʼrdan ibrat olsalar, yuqoridagi illatlardan qochsalar yoki, tark etishsalar maqsadga muvofiq boʻlar edi. Shoir sheʼrini tahlil qilar ekanmiz uning: “Donishqishloq latifalar”ini oʻqib, hamma kuladi. Vaholanki, men ularni yigʻlab yozganman” degan soʻziga yana bir bor amin boʻlamiz.

Bolalar ruhiyatidagi nuxsonlarni fosh qilish sanʼati sifatida hajviy yoʻsinda yozilgan asarlar sirasiga Xudoyberdi Toʻxtaboyevning “Sariq devni minib” asarini kiritishimiz mumkin. “Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish isteʼdodi ilgari asarlariga nisbatan bu asarida yana ham chuqurroq seziladi. “Sariq devni minib” asarini qiziqarli sujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi – bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvohi boʻlmish Hoshimjonni qoʻyadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yoʻli sarguzashtlarini, oʻziga xos xususiyatini va ruhiy xolatini atroflicha ochib beradi. Shuningdek, Hoshimjon xarakterida Xoʻja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi “tegirmonga tushsa butun chiqadigan” zukko bolalarning fazilatlari yaqqol mujassamlashganligini koʻramiz”. Lekin shunday boʻlishiga qaramay Hoshimjon dangasa va yalqovlikka berilgan. Oʻqishni xohlamaydi. Barcha kasblarni oʻqimasdan turib ham egallasa boʻladi deb oʻylaydigan bolalar sirasiga kiradi. “Sariq devni minib”da oʻqish, ilm choʻqqilarini egallash uchun va insonning oʻz orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan zamonimizda yashashiga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda yengil-yelpi yoʻl axtargan va adashgan bolalar – Hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi: Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, shoʻxligi olamni buzadigan bir bola. U hayotidagi koʻp narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yoʻl bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obroʻ orttirishi mumkin, deb oʻylaydi. Oʻz fikrida qatʼiy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergan ertakdagi sehrli qalpoqchani izlashga tushadi. Uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli qalpoqchani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u oʻzini orzulariga batamom erishadiganday his etadi. “Ortiqcha” fanlarni dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib “miyasini qotiradigan” oʻqituvchilariga oʻqimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam boʻla olish, koʻkrak toʻla ordenlar bilan shon-shuhratlar, katta obroʻga ega boʻlish mumkinligini koʻrsatib qoʻymoqchi boʻladi va shu maqsadda sehrli qalpoqcha bilan safarga chiqadi”. Sehrli qalpoqcha va Hoshimjon turli qiziqarli sarguzashtlarni boshidan oʻtkazadilar. Sehrli qalpoqcha Hoshimjonga turli masalalarda yordamga keladi va turli xil bir biridan qiziq karomatlar koʻrsatadi. Hoshimjon sehrli qalpoqcha yordamida oʻgʻri, muttaham, tekinoxʻrlarni kirdikorlarni fosh etadi. Lekin sehrli qalpoqcha ilm bilan bogʻliq boʻlgan ishlarda Hoshimjonga yordam bera olmaydi. Ular har gal endi bir ishning boshini tutganlarida ishlari chappasiga ketaveradi. Hoshimjon agronom, muhandis, muallim, shoirlik borasida oʻzini sinab koʻradi. Lekin sehrli qalpoqcha uning qiyofasini oʻzgartirib bera olardi, xolos. Bilimlarni miyasiga joylab bera olmasdi. Natijada, Hoshimjon ilmsizligi tufayli qaysi ishning boshini tutsa ham, oxir oqibat baribir sharmandali holatga kelib qolardi. Yozuvchi bolalarni Hoshimjon kabi oʻqimasdan, mehnat qilmasdan, hamma narsaga erishishning iloji yoʻqligini. Qahramonimiz oqibatda, hech narsaga erisholmasdan sharmanda boʻlganligini bolalarga uqtirmoqchi boʻladi. Hamma narsaning tag zahirida bilim va mehnat yotganligi va har bir fanning oʻz oʻrni borligi, ular hayotning



qaysidir jabhasida bizlarga yordam berishini ko'rsatib beradi. Xudoyberdi To'xtaboyevning bu asari ko'plab bolalarning xulqlarida paydo bo'lgan yoki bo'layotgan nuxsonlarning yo'qolishiga, oldini olishiga yordamchi bo'ldi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, ushbu rejamizda hajviyaning bolalar ruhiyatiga ta'siri, ulardagi ba'zi bir nuqson, illatlarni fosh qilish va yo'qotishdagi ahamiyatini o'rganib chiqamiz. Shuningdek, bolalar she'riyatida hajviy obraz yaratishdagi usullar ham ushbu rejada bayon etilgan. Anvar Obidjon, Erkin Vohidov, Xudoyberdi To'xtaboyev kabi ijodkorlarning asarlaridan misollar keltirib o'tilgan.

References:

1. Abduvalieva N., Ikramova G. LEXICAL-SEMANTIC PECULIARITIES OF PERSIAN-TAJIK WORDS USED IN THE GHAZELS OF ALISHER NAVOI //Zbiór artykułów naukowych recenzowanych. –T. 168.
2. Abduvalieva Nodira Alisherovna. (2023). EFFECTIVE ORGANIZATION OF MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS IN PRIMARY GRADES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 4(1), 844–848.
3. Abduvaliyeva, N. A. (2020). SOME FORMS OF REFERENCE (ADDRESSING) IN UZBEK DRAMAS. *Theoretical & Applied Science*, (1), 23-26.
4. Alisherovna, A. N. (2022). LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF PERSIAN-TAJIK ACQUISITIONS USED IN GHAZALS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 925-932.
5. Gazieva, D. (2019). MEDIATEXT IN THE FUNCTIONAL-PRAGMATIC ASPECT. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 153-158.
6. Gaziyeva, D. (2020). FORMS AND FUNCTIONS OF INTERTEXTUAL CHARACTERS IN THE MEDIA TEXT. *Theoretical & Applied Science*, (2), 671-673.
7. Gaziyeva, D. M., & Kushmatova, M. (2021). MAIN SUBJECTS OF MEDIACOMMUNICATION. *Theoretical & Applied Science*, (4), 418-421.
8. Muhammadovna, O. R. N. (2022). TALABA SHAXSINI INDIVIDUAL RIVOJLANTIRISHDA TYUTORLIK FAOLIYATINING ASOSIY KONSEPTSIYALARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 144-149.
9. Mukhamedkadirovna, G. D. (2022). MEDIA PEDAGOGY AS A SPECIAL DIRECTION IN PEDAGOGICAL SCIENCE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 900-906.
10. Mukhammadovna, U. N. (2023). IMPLEMENTATION OF TUTOR'S SUPPORT MODEL IN HIGHER EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 4(03), 58-64.
11. Mukhtoraliyevna, Z. S. (2016). The notion of non-equivalent vocabulary in linguistics. *International Journal on Studies in English Language and Literature*, 4(7), 70-72.
12. Mukhtoraliyevna, Z. S. (2023). System for Teaching Homonyms Words in Primary School. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(3), 1-4.
13. Mukhtoraliyevna, Z. S., & G'aniyevna, M. (2022). TYPES OF SPEECH AND ITS CHARACTERISTICS. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 184-189.



14. Nilufar, O. (2022). XALQ OG 'ZAKI IJODI VOSITASIDA BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING TALAFFUZI VA NUTQINI O 'STIRISH TEXNOLOGIYASI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 416-423.
15. O'Rinova, Nilufar Muhammadovna BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI // ORIENSS. 2023. №4-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-lajak-o-qituvchilarni-tyutorlik-faoliyatiga-tayyorlash-mexanizmlari> (дата обращения: 06.06.2023).
16. Orinova, N. M., & Murodova, D. K. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL TA'LIMNING XUSUSIYATLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(5), 330-338.
17. Qizi, O. N. K., & Qizi, M. A. M. (2021). The interest of junior school age students and their impact on speech performance. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1861-1864.
18. Qizi, O. N. Q. (2021). Ways To Work with Difficult Sounds in The Pronunciation of Younger Students. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 1(1), 91-93.
19. Zanjabila, A. (2022). FEATURES OF MOTIVATION TO LEARNING ACTIVITY IN JUNIOR SCHOOL CHILDREN. *Gospodarka i Innowacje*, 22, 20-24.
20. Zokirova, S. M. (2021). FORMATION OF CREATIVE LITERACY IN MODERN YOUTH AND THE VALUE OF MNEMONIC TECHNOLOGY. *Theoretical & Applied Science*, (4), 240-243.
21. Zokirova, S. M. (2021). USE OF PLACE NAMES IN BOBURNOMA. *Theoretical & Applied Science*, (4), 244-246.
22. Таштемирова, З. С., & Газиева, Д. М. (2020). ВОПРОСЫ КЛАССИФИКАЦИИ ЖАНРОВ В СТИЛИСТИКЕ. *Актуальные вопросы науки*, (60), 25-29.
23. Уринова, Н. М., & Таджибоева, Х. М. (2018). Педагогические основы развития социальной активности учащейся молодежи. In *international scientific review of the problems of philosophy, sociology, history and political science* (pp. 29-33).